


## II. SANOAT


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024- yil yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 5 265,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,1 foizni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning 84,5 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 106,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 56,8 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 105,1 % ga o'sishi kuzatildi.

### 2024- yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)




### Asosiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %



### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,02 % ni va o'sish sur'ati indeksi 84,5 % ni tashkil etdi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash hajmi va fizik hajm indeksi




### Ishlab chiqaradigan sanoat

2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 064,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,18 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ning ulushi 0,12 % ni (2023- yil yanvar-mart oylarida – 0,06 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 43,2 % (2023- yil yanvar-mart oylarida – 37,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 4,2 % (2023- yil yanvar-mart oylarida – 4,2 %) va quyi texnologiyali – 48,6 % (2023- yil yanvar-mart oylarida – 53,9 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha  
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %da**



Jami viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 6,4 mlrd. soʻmlik (2023- yil yanvar-mart oylarida 2,5 mlrd. soʻm), oʻrta-yuqori texnologiyali tarmoqda 2 276,7 mlrd. soʻmlik (2023- yil yanvar-mart oylarida 1 805,3 mlrd. soʻm), oʻrta-quyi texnologiyali tarmoqda 220,7 mlrd. soʻmlik (2023- yil yanvar-mart oylarida 203,7 mlrd. soʻm), quyi texnologiyali tarmoqda 2 560,8 mlrd. soʻmlik (2023- yil yanvar-mart oylarida 2 614,5 mlrd. soʻm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura koʻrinishida  
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish  
(2024- yil yanvar-mart oylari uchun)**

| <i>Mahsulot turlari</i>   | <i>Oʻlchov birligi</i> | <i>2024- yil yanvar-mart</i> | <i>2023- yil yanvar-mart</i> | <i>2023- yil yanvar-martga nisbatan, % da</i> |
|---|------------------------|------------------------------|------------------------------|---|
| Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)   | dona                   | 18 996                       | 16 855                       | 112,7   |
| Maxsus yengil avtomobillar  | dona                   | 6 144                        | 5 937                        | 103,5   |
| Aroq  | ming litr              | 55,4                         | 57,4                         | 96,6  |
| Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari | ming litr              | 68,9                         | 184,4                        | 37,4  |
| Gilam va gilam mahsulotlari   | ming m.kv              | 930,0                        | 363,0                        | 2,6 m.  |
| Yumshoq bugʻdoy va spelta uni   | tonna                  | 11 904,9                     | 18 998,9                     | 62,7  |

| <i>Mahsulot turlari</i>   | <i>O'lchov birligi</i> | <i>2024- yil yanvar-mart</i> | <i>2023- yil yanvar-mart</i> | <i>2023- yil yanvar-martga nisbatan, % da</i> |
|---------------------------|------------------------|------------------------------|------------------------------|---|
| Tozalangan o'simlik yog'i | tonna                  | 1 234,5                      | 2 309,2                      | 53,5  |
| Paxtadan yigirilgan ip    | tonna                  | 8 403,8                      | 6 763,7                      | 124,2   |
| Paxta tolasi              | tonna                  | 32 159,7                     | 33 994,1                     | 94,6  |
| Paxta chigiti             | tonna                  | 49 679,9                     | 55 642,0                     | 89,3  |
| Shakar                    | tonna                  | 23 880,2                     | 57 053,6                     | 41,9  |

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) – 2 141 donaga, maxsus yengil avtomobillar – 207 donaga, gilam va gilam mahsulotlari – 567 ming kv.metrda , paxtadan yigirilgan ip – 1 640,1 tonnaga ishlab chiqarish ko'paygan.

#### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 162,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,09 % ni) tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 56,8 % ni tashkil etdi.

#### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan natura ko'rishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2024- yil yanvar-mart oylari uchun)**

|                     | <i>O'lchov birligi</i> | <i>2024- yil yanvar-mart</i> | <i>2023- yil yanvar-mart</i> | <i>2023- yil yanvar-martga nisbatan, % da</i> |
|---------------------|------------------------|------------------------------|------------------------------|---|
| Elektroenergiya     | mln.kVt/s              | 313,9                        | 371,8                        | 84,4  |
| Issiqlik energiyasi | ming Gkall             | 52,0                         | 56,0                         | 92,9  |

#### **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37,3 mlrd. so'mni jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,71 % ni tashkil etdi.

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda yirik sanoat korxonalarini tomonidan natura ko'rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

*(2024- yil yanvar-mart oylari uchun)*

| <i>Faoliyat turlari</i>  | <i>O'lchov birligi</i> | <i>2024- yil yanvar-mart</i> | <i>2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da</i> |
|--|------------------------|------------------------------|--|
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar                        | mlrd.so'm              | 35,3                         | 125,7  |
| Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar               | mlrd.so'm              | 2,6                          | 2,1 m.   |
| Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar | mlrd. so'm             | 6,9                          | 149,2  |

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

*(2024- yil yanvar-mart oylari uchun)*

| <i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>  | <i>2024- yil yanvar-mart (mlrd. so'm)</i> | <i>2023- yil yanvar-mart (mlrd. so'm)</i> |
|--|---|---|
| <b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jami</b> | <b>5 265,5</b>                            | <b>4 856,7</b>                            |
| <b>Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>   | <b>0,9</b>                                | <b>0,9</b>                                |
| <i>ulardan:</i>  |   |   |
| Tog' - kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat   | 0,9                                       | 0,9                                       |
| <b>Qayta ishlash sanoati</b>   | <b>5 064,6</b>                            | <b>4 631,1</b>                            |
| <i>shundan:</i>  |   |   |
| Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish  | 688,5                                     | 1 040,1                                   |
| Ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish   | 313,5                                     | 317,0                                     |
| To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish  | 1 331,7                                   | 1 123,4                                   |
| Kiyim ishlab chiqarish   | 61,8                                      | 22,4                                      |
| Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish   | 7,4                                       | 3,7                                       |
| Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, ishlab chiqarish         | 28,9                                      | 11,1                                      |

| <i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>   | <i>2024- yil<br/>yanvar-mart<br/>(mlrd. so‘m)</i> | <i>2023- yil<br/>yanvar-mart<br/>(mlrd. so‘m)</i> |
|---|---|---|
| Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarish  | 48,5  | 51,4  |
| Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish   | 2,6   | 0,8   |
| Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish  | 4,1   | 32,3  |
| Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish   | 8,7   | 6,3   |
| Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish                              | 2,0   | 2,4   |
| Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish  | 18,6  | 25,0  |
| Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish  | 113,0   | 87,0  |
| Metallurgiya sanoati  | 7,9   | 10,6  |
| Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish                        | 73,1  | 44,0  |
| Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish                                     | 4,4   | 0,4   |
| Elektr uskunalari ishlab chiqarish  | 6,7   | 22,6  |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish                           | 55,7  | 20,6  |
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish                       | 2 205,7   | 1 756,3   |
| Mebel ishlab chiqarish  | 50,3  | 12,9  |
| Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish   | 27,6  | 35,5  |
| Mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish  | 4,0   | 5,1   |
| <b>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash</b>                              | <b>162,7</b>                                      | <b>197,1</b>                                      |
| <b>Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish</b> | <b>37,3</b>                                       | <b>27,7</b>                                       |


Iqtisodiy faoliyat turlaridan 2024- yilning yanvar-mart oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 208,3 mlrd. so‘mga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 449,4 mlrd. so‘mga, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 23,0 mlrd. so‘mga, mebel ishlab chiqarish 37,4 mlrd. so‘mga, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish 35,1 mlrd. so‘mga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

**Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish**  
**(2024- yil yanvar-mart oylari uchun)**  
**(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)**

| <i>Shahar va tumanlar nomi</i> | <i>Sanoat mahsulotlari,<br/>mlrd. so'mda</i> | <i>2023- yil yanvar-mart<br/>oylariga nisbatan ishlab<br/>chiqarish indeksi,%</i> |
|--------------------------------|--|---|
| <b>Xorazm viloyat bo'yicha</b> | <b>5 265,5</b>                               | <b>104,1</b>  |
| Urganch sh.                    | 732,5  | 97,6  |
| Xiva sh.                       | 84,3   | 108,7   |
| Bog'ot                         | 111,4  | 107,3   |
| Gurlan                         | 193,5  | 106,1   |
| Qo'shko'pir                    | 205,8  | 107,2   |
| Urganch                        | 263,8  | 108,6   |
| Hazorasp                       | 144,0  | 103,2   |
| Tuproqqal'a                    | 2 586,1                                      | 101,4   |
| Xonqa                          | 257,8  | 101,2   |
| Xiva                           | 114,3  | 97,4  |
| Shovot                         | 238,5  | 100,7   |
| Yangiariq                      | 184,6  | 91,2  |
| Yangibozor                     | 148,9  | 110,6   |


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi Xiva shahrida 8,7 foizga, Bog'ot tumanida 7,3 foizga, Gurlan tumanida 6,1 foizga, Qo'shko'pir tumanida 7,2 foizga, Urganch tumanida 8,6 foizga, Hazorasp tumanida 3,2 foizga, Tuproqqal'a tumanida 1,4 foizga, Xonqa tumanida 1,2 foizga, Shovot tumanida 0,7 foizga, Yangibozor tumanida 10,6 foizga oshganligini, Urganch shahrida 2,4 foizga, Xiva tumanida 2,6 foizga, Yangiariq 8,8 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

### Sanoat ishlab chiqarishda hududlarning ulushi, % da



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Tuproqqa'a tumani 49,1 foiz, Urganch shahri 13,9 foiz, Urganch tumani 5,0 foiz, Xonqa tumani 4,9 foiz, Shovot tumani 4,5 foiz, Qo'shko'pir tumani 3,9 foiz, Gurlan tumani 3,7 foiz, Yangiariq tumani 3,5 foiz, Yangibozor tumani 2,8 foiz, Hazorasp tumani 2,7 foiz, Xiva tumani 2,2 foiz, Bog'ot tumani 2,1 foizni hamda eng past bo'lgan va Xiva shahri 1,6 foizni tashkil qildi.

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida, foiz hisobida





Davlat va xususiy biznesning o‘zaro hamkorligi doimo har bir zamonaviy demokratik davlatning diqqat e’tiborida bo‘lgan. Keyingi yillarda butun dunyoda hukumat va biznes hamkorligining kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta’minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq, Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalar tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida 3 114,1 mlrd. so‘mlik, hududiy korxonalar tomonidan 2 151,4 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shuning bilan birga davlat sektorida 9,6 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 0,2 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 5 255,9 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 99,8 % ni tashkil etdi.


**2024- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

| <i>Shahar va tumanlar nomi</i>  | <i>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish<br/>ming so‘m</i> |
|---------------------------------|---|
| <b>Xorazm viloyati bo‘yicha</b> | <b>2 633,8</b>  |
| Urganch sh.                     | 4 773,7   |
| Xiva sh.                        | 852,1   |
| Bog‘ot                          | 631,5   |
| Gurlan                          | 1 228,3   |
| Qo‘shko‘pir                     | 1 127,9   |
| Urganch                         | 1 232,6   |
| Hazorasp                        | 697,5   |
| Tuproqqal’a                     | 43 477,7  |
| Xonqa                           | 1 296,8   |
| Xiva                            | 736,9   |
| Shovot                          | 1 320,1   |
| Yangiariq                       | 1 496,8   |
| Yangibozor                      | 1 607,4   |

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili, Tuproqqal’a tumanida (43 477,7 ming so‘m), Urganch shahrida (4 773,7 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (2 139,9 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Qolgan Bog‘ot tumanida (631,5 ming so‘m), Hazorasp tumanida (697,5 ming so‘m), va Xiva tumanida (736,9 ming so‘m) ko‘rsatkich past ekanligini ko‘rish mumkin.

**2024- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining o‘shishi, 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, %da**




**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissi**

Davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda yildan yilga ularning hissi tobora ortib bormoqda.

Xususan, 2024- yil yanvar-mart oylarida viloyatda ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 891,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 16,9 %ni tashkil etmoqda.

**Hududlar bo'yicha yirik va kichik biznesning sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarishdagi ulushi, %da  
(2024- yil yanvar-mart oylari)**




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Urganch tumanida (55,5 %), Xiva shahrida (47,4 %), Xiva tumanida (32,4 %), Bog'ot tumanida (43,4 %), Xonqa (34,3 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulush Tuproqqal'a (2,0 %) tumanida kuzatildi.


**Qo'shma korxonalarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi**

Hisobot davrida 22 ta qo'shma korxonadan 465,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi esa 8,8 % ni tashkil etdi.

**Viloyatda qo‘shma korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %**




**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda hududlar bo‘yicha qo‘shma korxonalarining umumiy hajmidagi ulushi, %da**



**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**


Bugungi kunda viloyatda 3 682 ta sanoat korxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 676 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 18,4 %) Urganch shahriga, 410 tasi (11,1 %) Urganch tumaniga, 363 tasi (9,9 %) Qo‘shko‘pir tumaniga, 339 tasi (9,2 %) Xonqa tumaniga va 278 tasi (7,6 %) Xiva tumaniga to‘g‘ri keladi.

## Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik



## Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2024- yil yanvar-mart)



Viloyatda 2024- yilning yanvar-mart oylarida 343 ta yangi sanoat korxonalari tashkil qilingan bo'lib, shularning 66 tasi Shovot tumaniga, 34 tasi Hazorasp tumaniga, 32 tasi Xiva tumaniga, 32 tasi Urganch tumaniga, 25 tasi Urganch shahriga, 25 tasi Gurlan tumaniga, 28 tasi Xiva shahriga to'g'ri keladi.

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 86 ta loyiha bo'yicha 331,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari




**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni  
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari  
(2024- yil yanvar - mart)**

| <i>Shahar va tumanlar nomi</i> | <i>Loyihalar soni, birlikda</i> | <i>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm</i> | <i>Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, mln AQSh dollari</i> | <i>Yangi tashkil qilingan ish o'rinlari soni, birlikda</i> |
|--------------------------------|---------------------------------|---|--|--|
| <b>Jami:</b>                   | <b>86</b>                       | <b>331,7</b>                              | <b>1,5</b>   | <b>31</b>  |
| <i>shundan;</i>                |                                 |   |  |  |
| Urganch sh.                    | 21                              | 15,094                                    | 0,070  | -  |
| Xiva sh.                       | 3                               | 32,417                                    | 0,110  | 15   |
| Bog'ot                         | 1                               | -   | -  | -  |
| Gurlan                         | 9                               | 0,367                                     | -  | -  |
| Qo'shko'pir                    | 3                               | 1,790                                     | 0,123  | -  |
| Urganch                        | 4                               | 0,738                                     | -  | -  |
| Hazorasp                       | 4                               | 0,870                                     | -  | 1  |
| Tuproqqal'a                    | 24                              | 248,233                                   | 1,153  | 9  |
| Xonqa                          | 2                               | 1,989                                     | -  | 6  |
| Xiva                           | 6                               | 0,110                                     | -  | -  |
| Shovot                         | 4                               | 29,892                                    | -  | -  |
| Yangiariq                      | 4                               | 0,191                                     | -  | -  |
| Yangibozor                     | 1                               | 0,024                                     | -  | -  |

Shahar va tumanlar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Urganch shahrida 21 ta loyihada 15,1 mlrd so'mlik, Xiva shahrida 3 ta loyihada 32,4 mlrd so'mlik, Gurlan tumanida 9 ta loyihada 0,4 mlrd so'mlik, Qo'shko'pir tumanida 3 ta loyihada 1,8 mlrd so'mlik, Urganch tumanida 4 ta loyihada 0,7 mlrd so'mlik, Hazorasp tumanida 4 ta loyihada 0,9 mlrd so'mlik, Tuproqqal'a tumanida 24 ta loyihada 248,2 mlrd so'mlik, Xonqa tumanida 2 ta loyihada 2,0 mlrd so'mlik, Xiva tumanida 6 ta loyihada 0,1 mlrd so'mlik, Shovot tumanida 4 ta loyihada 29,9 mlrd so'mlik va Yangiariq tumanida 4 ta loyihada 0,2 mlrd so'mlik, Yangibozor tumanida 1 ta loyihada 0,02 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

### Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, foizda



Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Tuproqqal'a tumani 74,8 foiz, Shovot tumani 9,0 foiz, Urganch shahri 4,6 foiz va Xiva shahri 9,8 foizni hamda eng past bo'lgan Yangibozor tumani 0,01 foiz va Xiva tumani 0,03 foizni tashkil qildi.



## **Statistik ko‘rsatkichlarga tushuntirish**

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi** – korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, nosanoat bo‘linmalarga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi: ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar).

**Sanoat ishlab chiqarishida o‘zgarish indeksleri** – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

**Iste‘mol tovarlari** – asosan shaxsiy iste‘mol yoki foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste‘mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi.

**Natura ko‘rinishida sanoat ishlab chiqarishi hajmi** – boshqa korxonalariga jo‘natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan, korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi, ya‘ni yalpi mahsulot.

**Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko‘ra guruhlash** - Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

**Mahalliyashtirish darajasi** – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

**Mahsulot sotish hajmi** – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).

**Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati** – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda to‘ldiriladi.

**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.

**Ishlab chiqaradigan sanoat** – yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni, garchi ishlab chiqarishning ma‘lum turi uchun birdan-bir to‘liq me‘zon hisoblanmasa ham, o‘z ichiga oladi.

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash** – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug‘ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog‘liq faoliyatni o‘z ichiga oladi.

**Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish** – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig‘ish, qayta ishlash va yo‘qotish)ni o‘z ichiga oladi.